

2-aprel - Xalqaro bolalar kitobi kuni

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:13 (67074)
2016-yil
28-mart

Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning,
ilm-u donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir.

Amir TEMUR



Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 244-umumta'lim maktabining
6-«E» sinf o'quvchilari Shirin Abdullayeva, Mohira Ahmedova hamda
Visola Umarova maktab kutubxonasining faol a'zolaridan.

Ushbu sonnda:

**ANDIJONIM,
GO'ZAL SHAHRIM,
GULLARGA KONSAN...**

4-5-betlar

**HAKKULAR
VA
OOQUSHLAR**

6-bet

**AVJI
BALAND
NIHOLLAR**

8-bet

«TONG YULDUZI» MEHMONIDA

– Maskanimizning yutuqlari bisyor, – deydi Toshkent viloyatining Piskent tumanidagi 1-umumta'lim maktabi direktori Marhabo opa Qurbonova. – Maktabda 1100dan ziyod o'quvchiga 70 nafar o'qituvchilar saboq bermoqda. Xonalar zamonaviy jihozlar va kompyuterlar bilan ta'minlangan.

Gazetani sahifalash jarayonida maktabdan xushxabar oldik. Respublika «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida 15 nafar o'quvchilar turli fanlar bo'yicha 1-o'ringa sazovor bo'lishibdi.

Zulfiya KARIMJONOVA, 9-«A» sinf o'quvchisi: – Men ona tili va adabiyot fanlaridan o'tkazilgan fan olimpiadalarida faol qatnashaman. Ingliz, rus tili to'garaklari a'zosiman. She'r, maqolalar yozishga qiziqaman. Ingliz tilidan ertaklar ham tarjima qilib turaman.

O'quvchilarimiz ham ushbu sharoitlarga javoban yaxshi yutuqlarga erishishmoqda. Maktabda tashkil etilgan shaxmat to'garagiga Muhabbat Toirova rahbarlik qiladi. Keling, o'quvchilarimizning qiziqishlari haqida ularning o'zlaridan so'ray qoling...



Javlon JABBOROV, 9-«A» sinf o'quvchisi: – Men sportning voleybol turiga qiziqaman. Maktabda «Kamolot» sardoriman. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, darslarga qatnashish – davomat haqida tushuntirish ishlarini olib boramiz.

Di y o r a

U S M O N O V A : – Maktabda «Orasta qizlar» klubi rahbarim. Har haftada odob-ahloq, kiyinish madaniyati, telefonda suhbatlashish, pazandalik, tikuvchilik mavzularida suhbatlar uyushtiramiz. Shuningdek, tumanda tashkil etilgan «Barkamol avlod» bolalar markazining «Biserdan buyumlar to'qish» to'garagiga qatnashaman. To'garak rahbarimiz Dilnoza opa Ahmedova bizga bu hunarning nozik sirlarini o'rgatmoqdalar.

Donoxon ZAYNIDDINOVA: – Men biologiyaga juda qiziqaman. Maktabimizda tashkil qilingan to'garakka muntazam qatnashib kelyapman. Fan olimpiadasining viloyat bosqichida qatnashish huquqini o'lga kiritdim. Bo'sh vaqtlarimda badiiy kitoblar mutolaa qilishni yoqtiraman.

Yaqinda taniqli adib O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanini o'qib tugatdim. Asarni o'qish jarayonida o'zimni uning ichida yurgandek his etdim.

Mana, bolajonlar, mehmonlarimizning kelajakda ulkan marralar sari pillapoya bo'ladigan yutuqlari bilan tanishdingiz. Siz han oldingizga katta maqsadlar qo'ying. Zero, mustaqil yurtimizning mustahkam kelajagi sizning qo'lingizda ekanligini unutmang.

Ozoda TURSUNBOYEVA



Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 4-umumta'lim maktabida chizmachilik fani bo'yicha «Mahorat darsi» o'quv seminari bo'lib o'tdi.

MAHORAT DARSII

Unda Pedagogik kadrlarni malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi Qudrat Mirahmedov, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 223-umumta'lim maktabining chizmachilik fani o'qituvchisi Zebo Roziqova, Uchtepa tumani uslubchisi Lutfiniso Fozilova hamda tuman maktablarining tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchilari qatnashishdi. Seminar maktabning chizmachilik va tasviriy san'at o'qituvchisi Nargiza Isoxodjayeva tomonidan tashkillashtirildi.

Nargiza opa har gal darslarni zamonaviy uslubda o'tkazar ekan, o'quvchilarning o'zlashtirishiga alohida e'tibor qaratadi. Mashg'ulotni o'zi tayyorlagan ko'rgazmali qurollar orqali mustahkamlaydi.

Shuningdek, ustoz maktabda tashkil etilgan «Yosh rassomlar» to'garagiga ham rahbarlik qiladi. To'garak a'zolarini kitob, gazeta va jurnallar bilan doimo yaqin do'st bo'lishga chaqirib, rasm chizishning qonun-qoidalarini puxta o'rgatishga harakat qiladi.

Shavkat KAZAKBAYEV



Bugungi kunda mam-lakatimiz umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish maqsadida, qator tadbirlar uyushtirish odatiy amalga aylangan. Fan o'qituvchilarining ilmiy-almaiy seminarlari bu borada muhim omil bo'lmoqda.

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 216-umumta'lim maktabida tuman rus tili fani o'qituvchilari seminari bo'lib o'tdi. Tadbir ishtirokchilari muallima Gulnora Tolipovaning 6-«A» sinfida «Matbuot anjumani» mavzusidagi darsini kuzatdilar. O'yin-mashg'ulotda sinf a'lochilaridan Nodira Saidvaliyeva va Shahnoza Olimjonova teleboshlovchi bo'lishdi. Samandar Rahmatullayev esa «Lejebokin» ya'ni dangasa bola rolini mahorat bilan ijro etdi. O'quvchilarning rus tilida biyron so'zlashi, she'rlarni ifodalari o'qishi darsning qiziqarli kechishini ta'minladi.

Dars yakunida tuman XTMFMT va TE bo'limi rus tili fani uslubchisi Dilnoza Rahmonova darsning zamonaviy innovatsion texnologiyalari asosida tashkillashtirilganiga yuqori baho berib, fanni o'zlashtirishida muhim vosita ekanligini alohida ta'kidladi.

NURBEK



ZUBAYDA olgan suraitlar

Toshkent viloyati hokimiyatining viloyatimiz yoshlari o'rtasida
«MENING TOMORQAM»

nomli insholar tanlovini o'tkazish to'g'risidagi taklifini maktabimiz o'quvchilari katta mamnuniyat bilan qarshi oldilar. Quyida e'tiboringizga tanlovning maktab bosqichi g'olibi, Muqaddas Nig'monovanning yozgan inshosini qisqartirilgan holda havola qilamiz. Hurmat bilan,

Fazliddin BERDIYEV,

73-umumta'lim maktabi direktori, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

MEHNATNING TAGI ROHAT

O'lkamizga intiqib kutganimiz bahor fasli kirib keldi. Ona yer, butun borliq uyqudan bosh ko'tarmoqda. Dalalarda esa yana hayot qaynaydi. Bobodehqon belini mahkam bog'lab, ezgu niyatga yerga urug' qadaydi.

Shunday kezlarda «Hoy tengdosh do'stim, atrofga boqing. Zumrad bahorni ezgu niyatlar ila qarshi oling. Yo'llariga gullardan poyandoz to'shang. Sochlariga qirgokil taqan qizaloqlarning kulgusi olamni tutsin. Sho'x-shodon bolajonlarning varraklari ko'kni quchsins», degim keladi.

Har yili bahorda oila a'zolarimiz bilan uyimizdagi tomorqaga mehr beramiz.

Hamjihat bo'lib, mehnat qilishga kirishamiz va boshqalarni ham shunga chaqiramiz.

Bu yil men ham onamga tomorqa ishlarida ko'maklashmoqdaman. Dam olish kuni ular bilan uyimizdagi maydonchaga yangi gul ko'chatlarini o'tqazdik. Qolaversa, otamga anjir, anor, uzum, olma, gilos kabi mevali daraxtlarning novdalarini tartibga keltirishga ko'maklashdim. Shuningdek, maktabimiz bog'ida ham biz o'quvchilar uchun tomorqa yeri ajratilgan bo'lib, barchamiz o'z hududimizdagi mevali daraxtlarning unib o'sishiga, atrofning ozoda bo'lishiga mas'ulmiz. Yana bir gap. Yaqinda tengdoshlarim bilan «Eng go'zal bog' egasi» tanlovida ham ishtirok etishni niyat qilganmiz. Bu ezgu sa'y-

harakatlarimiz yurtimizning chiroy ochishiga oz bo'lsa-da hissa qo'shsa, bundan bag'oyat xursand bo'lamiz.

Aziz tengdoshlar, bugun har birimizning xonadonimiz bahor faslining barakalarini intiq bo'lib kutmoqda. Shunday ekan, barchamiz o'zimiz istiqomat qiladigan mahalla-yu guzarlarimiz, jonajon maktabimiz hududiga yangi daraxt ko'chatlari o'tqazib, yon-atrofni bog'ga bo'stonga aylantiraylik! Uylarimiz oldini, ariq va zovurlarni turli chiqindilardan tozalab, yurtimiz go'zalligiga o'z hissamizni qo'shaylik!

Vatanlar, Vatanlar, mayli, gullasin,
 Tong otib har doim porlasin quyosh.
 Gul unsin cho'lda ham, hatto toshda ham,
 Mehnatdan tolmasin barcha qari-yosh!

Muqaddas NIG'MONOVA,

Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi
 73-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi



Lesson 80

Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

Searching of adventure (Sarguzasht izlab)

Omina HOJIBEKOVA,
 the pupil of 6-«G» form
 in school number 326 in
 Olmazor district.

She likes reading adventure
 books in English and Uzbek.
 Her great interest to foreign
 language leads to write and
 translate her poems in
 English in future.



H.HAMIDULLAYEV olgan surat

Greeting courtesy (Salomlashish odobi)

Match these expressions with pictures.

Good afternoon Good night **Good morning** Goodbye



Kumush TURG'UNOVA,
 the pupil of school number 54 in Urtachirchik district,
 Tashkent region.

Can I help you? (Sizga yordam bera olamanmi?)

Fill the conversations in different places. Use the words to complete the conversations.



In the street

- A) Excuse me! Where can I buy a film for my camera? can/ film /a /Where/ I /buy
 B) In a chemist.
 A) _____?
 There /a/ is /chemist /here/ near
 B) Yes, two hundred metres from here, _____ bank /the /to /next

In a clothes shop


- C) Can I help you?
 A) _____ I'm just looking. thanks/ No.
 A) Excuse me! _____ in a medium? have /shirt/ Do /you /this
 C) No, I'm sorry. _____ all /we/ That's/ have
 A) _____ a pair of jeans, please. try/ like/ to/ I'd /on
 C) Sure. _____? are/ size/ What/ you
 A) I think I'm a forty.
 C) Fine. The changing rooms are over there.



Lesson of vigilant (Zukkolik darsi)

Tick (✓) the correct sentence.

- 1) What do you do at the weekend?
 Where do you do at the weekend?
- 2) How many money do you have?
 How much money do you have?
- 3) Our teacher gives us a lot of homework.
 Our teacher gives we a lot of homework.
- 4) My mother loves me and I love her.
 My mother loves my and I love she.



- 5) I don't drink milk. I don't like.
 I don't drink milk. I don't like it.
- 6) Who is your friend?
 When is your friend?

Prepared by Dinora SHAKIROVA
 Painter: YOQUBBEK

Ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom, hech kimdan kam bo'lmasdan, boshini baland ko'tarib yashaydigan, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, xalqimiz intilayotgan kelajagi buyuk davlatni barpo etishga barkamol avlodgina qodir bo'ladi.



— Xo'jaobod tumani markazida joylashgan 24-umumta'lim maktabimizda 21 ta sinf bo'lib, 618 nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladi. Biz uchun barcha sharoitlar muhayyo, — deydi 9-«B» sinf o'quvchilari Odiljon G'ulomov va Shukurxon Bahodirova.



Viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazidagi «Yosh konstruktor» to'garagi a'zolari Andijon shahridagi 2-umumta'lim maktabining 4-«E» sinf o'quvchisi Biloliddin Habibullayev, 7-«Z» sinf o'quvchisi Samandar Ashurov, 1-umumta'lim maktabining 3-«I» sinf o'quvchisi Muhammadamin Haydarov «Varrak uchirish» musobaqasida qatnashish uchun hozirlik ko'rishmoqda.



SEMINAR-TRENING
o'zaro tajriba almashishga xizmat qildi
 Yaqinda maktabimizda fizika fani bo'yicha seminar-trening o'tkazildi. Unda 52 ta ta'lim maskanining fizika fani o'qituvchilari ishtirok etdi.
 Dastlab, o'qituvchilar maktab hayoti va ta'lim sohasida tayyorlangan ko'rgazma bilan yaqindan tanishdilar. So'ng 6-sinflarda «Jismlarning issiqlikdan kengayishi» mavzusidagi ochiq darslarni kuzatib, o'quvchilarning bilimini baholab bordilar. Ayniqsa, «Fizika va lirika» nomli tadbir dasturi ustozlarda katta taassurot qoldirdi.
 — Bugungi kun o'qituvchidan doimo o'qib-rganish, o'z ustida tinimsiz izlanishni talab etadi, — deydi tumandagi 1-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Umida Ahmadjonova.
 Tadbirdan so'ng o'qituvchilar bu kabi seminar-treninglarni tez-tez tashkil etishga kelishib oldilar.
Dildoraxon FOZILOVA,
 Qo'rg'ontepa tumanidagi 25-umumta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi

ANDIJONIM, GO'ZAL SHAHRIM, GULLARGA KONSAN...

Islom KARIMOV
MUXBIR SAFARDAN QAYTDI



Andijon shahridagi 1-umumta'lim maktabining 6-«D» sinf o'quvchisi Ahror Sultonov o'z chizgilarida tengdoshlarini salbiy illatlardan ogoh bo'lishga chaqiradi.

Bu so'lim maskan haqida gap ketganida:
«Andijonliklar chaqaloqni ham «siz»lashadi andijonchasiga, Nonday shirin yumshoqlik bilan so'zlashadi andijonchasiga», deya ta'riflashadi. Andijonliklarning xushfe'l, mehmonnavoz, shirinsuxan ekanliklarini bilish, ko'rish uchun ham bir bor bo'lsa-da, Andijonga sayohat qilish kerak.



Rivoyat qilinishicha, bir dehqon dalada qo'sh haydab yurganida, o'sha yerdan o'tayotgan yo'lovchi unga: «Hormang!» debdi. Dehqon bu so'zni eshitsa ham o'zini eshitmagani o'lib: «Xo'sh, jonivor!» deb yerni haydashda davom etibdi. Yo'lovchi yana: «Hormang!» deya murojaat qilibdi.

Dehqon esa qo'sh haydashni to'xtatibdi. Yo'lovchi daraxt soyasiga o'tib, uni kuzata boshlabdi. Uning oldiga kelibdi-da: «Bor bo'ling...», deya javob beribdi. Shunda u kishi: «Uch marta «Hormang!» desam, jayob qaytarmaganingizni boisi ne?» — deb so'rabdi. Dehqon biroz xijolat bo'lib: «Taqdir, o'sha vaqtda ekadigan yerimning obi-tobi joyida edi, bor bo'ling, deyishga ham vaqtim yo'q edi, yerim tobidan qochmasin, dedim. Endi oldingizga kelib, har qancha «Bor bo'ling», deya so'zga roziman. Qani, tushlikka marhamat», debdi. Yo'lovchi bu insonning vaqtni qadriga qanchalik yetishini ko'rib, hayratlangan ekan.

Darhaqiqat, har bir inson o'z sevgan mashg'uloti bilan band bo'lsa, unga mehnat, uning hosilini olishi, shubhasiz. Bo'sh vaqtdan unumli foydalana bilish ham oqilona ishlarandir. O'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga qaratilgan muassasalardan biri Andijon viloyati «Barkamol avlod» bolalar markazidir.

Xo'jaobod tuman xalq ta'limi muassasalar faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 37 ta umumta'lim maktablarida 15331 nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladi. Tumanda 741 ta fan va ijodiy to'garaklar faoliyat yuritadi. Ularga 11527 nafar o'quvchilar a'zo. 60 ta sport yo'nalishidagi to'garaklarda esa 1320 nafar o'quvchilar o'zlarini tanlagan sport turi bilan shug'ullanishadi. Bundan tashqari, sport maktablari, musiqa va san'at maktablari, «Barkamol avlod» bolalar markazlari o'quvchilar bilan gajvum.



Andijon tumanidagi 54-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchilari Mashhura Abdumominova 43-sport maktabida karate bilan shug'ullanadi. Shahodatoy Solijonova esa «Kamalak» yulduzlarining viloyat bosqichi g'olibi.

Buloqbooshi tuman xalq ta'limi muassasalar faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi tasarrufida 34 ta umumta'lim maktablari mavjud. Ularda jami 1537 nafar pedagog xodimlar 18717 nafar o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. Shuningdek, 1 ta «Barkamol avlod» bolalar markazi, 14-Bolalar musiqa va san'at maktabi, 2-TIP bolalar va o'smirlar sport majmuasi faoliyat yuritadi.
 2015–2016-o'quv yilida o'tkazilgan tasviriy san'at yo'nalishida, «Jaholatga qarshi ma'rifat» va «Odam savdosi — davr muammosi» ko'rik-tanlovlari 13-umumta'lim maktabi o'quvchilari Abdurahmon Qo'chqorov hamda Abdurashid Abdullayev munosib qatnashib, viloyat bosqichida g'olib bo'ldi va Respublika bosqichiga yo'llanma olishdi.
 Shuningdek, «Orasta qizlar» Respublika ko'rik-tanlovida 30-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Kamola Adhamova o'zining badiiy ijod yo'nalishidagi ishlari bilan qatnashib, «Eng faol ishtirokchi» yo'nalishi g'olibi bo'ldi.
 Yaqinda Toshkent viloyati, Chirchiq shahrida o'tkazilgan respublika chempionatida sportning karate turi bo'yicha tuman terma jamoasi faxrlari o'rinni qo'lga kiritishdi.

Biz xushhavo, ko'rkam binoda joylashgan markaz hovlisida muassasa rahbari Gulnora opani to'garaklarga kelayotgan o'quvchilarni ochiq chehra bilan kutib olayotganining guvohi bo'ldik. Opa bizni dastavval bolalar markazining tadbirlari o'tkaziladigan

Boyarskiy kabi ne-ne san'atkorlar qo'shiq kuylashgan, — dedi opa bizni ichkariga boshlarkan faxr bilan. — Maskanimizda deyarli har kuni tadbirlar tashkil etiladi, — davom etdi opa mamnunlik bilan. Bu esa, yonatrofni yanada saranjom-sarishta tutish, o'quvchilarning to'garakdagi mashg'ulotlarini risoladagidek tashkil etish demakdir. Chunki kelgan mehmonlar, albatta, ularning ijodiy ishlari bilan tanishib, dildan suhbatlashgisi keladi. Mezbanimizning tadbirkorligi, o'z ishini fidoyisi ekanligi uning har bir harakatida sezilib turadi. Opaning kuni kecha «Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi samarali mehnatlari uchun» viloyat hokimining faxriy yorlig'i bilan taqdirlanishi o'z kasbiga bo'lgan mehning mahsuli bo'lsa, ajabmas.

O'g'lim Samadjon Rasuljonov 37-umumta'lim maktabining 3-«G» sinfidagi o'qiydi, — deydi Nodiraxon To'ychiyeva. — 2 yildan buyon «Barkamol avlod» bolalar markazidagi «Yosh musavvirlar» to'garagiga qatnashadi. Multfilm qahramonlarini, tabiat manzaralarini chizishni juda yaxshi ko'radi. Ona sifatida doriloman kunlarning qadriga yetib, farzandlarimiz kamoloti uchun vaqt ajratishimiz zarurligini har daqiqa his etib yashayman.



XULOSA O'RNIDA

Dunyoda hech yengib bo'lmaydigan kuch bir daqiqadir. Hatto ana shu bir daqiqa vaqt orqaga qaytmagani uchun ham har daqiqa g'animat, deymiz. Biz vaqt haqidagi fikrlarni bejizga keltirmadik. Safar davomida ko'plab iqtidorli, izlanuvchan o'g'il-qizlar, kitobxon o'quvchilar, «Tong yulduzi» gazetasining muxlislari bilan suhbatlashdik. Ularning orzu-umidlarini tingladik, fikr va mulohazalari bilan o'rtoqlashdik.
 Demakki, andijonlik tengdoshlaringiz ham ulug' maqsadlar, yuksak orzular yo'lida izlanayotganiga, o'qib-o'rganayotganiga guvoh bo'ldik. Shuningdek, maktab, tuman, viloyatlarida bo'layotgan bunyodkorlik ishlari-yu, yangiliklar haqida tahririyatimizga maktub yo'llayotgan yosh muxbirlarimiz bo'lgan aziz o'quvchilar bilan ham uchrashdik. Gazeta haqidagi fikrlari bilan qiziqdik, taklif va istaklarini inobatga oldik. Biroq, ayrim maktab o'quvchilaridan, «Tong yulduzi» gazetasiga qay darajada obuna ekanliklarini so'rganimizda, ba'zi o'quvchilar respublika bolalar nashrlari haqida gapirib berisha olmadi. O'ylaymizki, ushbu uchrashuvdan so'ng, andijonlik har bir o'quvchi safimizga, albatta, qo'shiladi va gazetxon o'quvchi nomiga munosib bo'lishadi.
 Biz yana vaqtga qaraymiz, ming afsuski, vaqt esa hech kimga qaramaydi. Ishonamizki, o'quvchilaringiz bamosoli qush kabi uchib borayotgan vaqtni hech qachon boy berishmaydi.
Feruz SOYIBJON qizi, Nodira NAZAROVA



Tikuvchi qizlar — 1-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi Marziya Sanginova, 14-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Yelena Gafurova, 13-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi Madina Ravshanbekova, 30-umumta'lim maktabining 4-«E» sinf o'quvchisi Rufina Jarkova ustozlari Nasiba Qobilovadan tikuvchilik sirlarini puxta o'rganishyapti.



Haftaning har juma kuni «Ma'naviyat saboqlari» mashg'ulotlari o'tiladi, — deydi Xo'jaobod tumanidagi 24-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi Saïda MUSULMONOVA.



Stol tennisi to'garagi a'zosi, 31-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi Muhammadqodir Qodirov o'tgan yili Toshkent viloyatida bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida faxrlari o'rinni egalladi.



Shahardagi 2-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi, «Kompyuter savodxonligi» to'garagi a'zosi Nurmuhammad Mahmudov eng iqtidorli o'quvchilardan biri.

Z. MAMATQULOVA va N. SULTONOV olgan suratlar

TEMUR BOBOM

Nomin tilga olsak, tanir bor jahon,
Sohibqiron Temur o'zbek o'g'loni.
Mardligi yoshlarga o'makdir har on,
Tog'larni qulatgan uning qalqoni.

«Temur tuzuklari» kitobin o'qib,
Hikmatlarin joylaymiz dilga.
Adolat bayrog'in qo'lida tutib,
Boshlagan xalqini haqiqat yo'lga.

Samarqandni bezar minoralari,
Shahrisabzga ko'rkdir imoratlarini.
Asrdan-asrga eskimas nomi,
Ulug'lanar doim laziz kalomi.

Sarvinoz NORBOYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Nukus shahridagi 16-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

VATAN BETAKRORDIR

Vatan muqaddasdir buyukdir asli,
Uning tuprog'ida zarlar unadi.
Biz Navoiy hamda Temurbek nasli,
Yorqin manzil sari karvon jo'nadi.

Sarbonning dilida niyatlar ulug',
Farovonlik sari kunlar yeladi.
Har bir tongimiz otadi qutlug',
Mehnatning ortidan iqbol kuladi.

Vatan betakrordir chamanzor, gulzor,
Bog'larni sho'x kezib yayrab yashayman.
Ming turda tovlanar kelinchak bahor,
Saodat yo'lida qadam tashlayman.

Mohiniso BOBOQULOVA,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om
tumanidagi 18-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi

ONAJONIMGA

Orzuli dunyoda orzular qilib,
Hayot tashvishlarin bir chetga surib,
Yashang bu dunyoda hammadan baxtli,
Chehrangiz nur bo'lib, labingiz kulib.

Bahor chechaklari sizga armug'on,
Siz aziz insonsiz, ulug' begumon,
Sizni qutlagaymiz bugun barchamiz,
Har kuningiz bayram o'tsin shodumon.

Oftob yuzingizda nurlar taratar,
Oy kechalar sizga qo'shiq yaratar,
Yagona o'tinchim sizdan azizim:
Bizga shodlik ulash, g'amlarni qaytar!

Hasanboy HABIBULLAYEV,
poytaxtimizning Yakkasaroy
tumanidagi 26-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi

QIZIQARLI FAN

Matematika fani –
Sayohatga boshlaydi.
Uni bilmagan bola,
Tezda ko'zin yoshlaydi.

Bu fan hammaga ma'lum,
Hatto kichintoylarga.
Ular misol yechishar,
Qarab yulduz, oylarga.

Biz-chi?! Qiyin misolni –
Bir amallab yechamiz.
Topqirlik borasida,
Muammodan kechamiz.

Madinabonu MAHMUDALIYEVA,
Toshkent viloyati, Angren
shahridagi 13-umumta'lim
maktabining 8-sinf o'quvchisi

NON

Oyim yopdi issiq non,
Kulcha berdi menga ham.
Menday jigarbandiga,
Qayishmasin nega ham.

Hozircha men saxiylik,
Mevasin shod teraman.
Nonni hali oyim-chun,
O'zim yopib beraman.

Munisa ERGASHEVA,
Jizzax viloyati, Paxtakor
tumanidagi 17-umumta'lim
maktabining 6-sinf o'quvchisi

Afruz URALOVA,
Navoiy viloyati, Uchquduq
tumanidagi 3-umumta'lim
maktabining 2-«V» sinf
o'quvchisi



BAXMAL

SO'LIM MASKAN

Baxmal tumanini tog'larsiz tasavvur qilib
bo'lmaydi. Bu gulshanga safarimiz chog'i
olam-olam zavq tuydik. Asosiy boyliklari uning
betakror o'rmonlari va o'simliklar dunyosidir.

Hududdagi Turkiston va Morguzar tog'
tizmalarini bog'lab turadigan nihoyatda go'zal va
orombaxsh maskan Novqaning tabiati boy va xilma-
xil. Kiyiko't, na'matak kabi dorivor g'iyohlari mo'l-
ko'l. Shuning uchun ham qadimdan tabiblar yurti,
deb bejiz aytishmagan.

Biz Qontomdi dasarida bo'ldik. Yuqorida
Teraklisoy daryosining shovullashi, anhor va
jilg'alardan muzdek suvning shildirab oqishini
eshitib, charchoqni unutganday bo'lasiz. Ko'm-ko'k
yaylovlari esa minglab jonivorlarga ozuqa beradi.
Ko'zni qamashtiruvchi mo'l-ko'l gulzorlarni ko'rib,
ko'zingiz yashnab ketadi. Ular xuddi rassom
chizgan suratdek bizni ham o'ziga rom etdi.

Kunning ikkinchi yarmida Novqaning sharqiy
qismida joylashgan O'smat ota maqbarasi, Mo'g'ol
xonaqohi hamda bir qancha ziyoratgohlarda
bo'ldik.

Safar davomida inson hayoti yashillik olami
bilan uzviy bog'liqligiga amin bo'ldik. Uni
vujudga keltirish, bebaholigini yoshlarimizga
anglatish barchamizning burchimiz
ekanligini his etdik.

Nodira ABDULLAYEVA,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zMU 2-bosqich talabasi

Naql qilishlaricha, o'rmonning so'lim go'shasida
bir to'p parrandalar ahil va inoq yashasharkan.
Dono Burgut ularning yo'lbo'shchisi edi. Hali bu
o'rmonda qushlarning shodon chug'urlashidan
o'zga ovozni hech kim eshitmagan va shu sabab
hamma ularga havas bilan qarardi.

Kunlarning birida uch-
to'rtta Kaku Burgutning



KAKKULAR VA OQQUSHLAR

(Hikoya)

yoniga kelib, o'z to'dasidan adashganini, ijizat
bersa shu yerdagi qushlar bilan do'stlik rishtasini
bog'lab, doimiy yashab qolish istagini bildirdilar.
Shu tariqa Burgutning izni bilan Kakkular
o'rmonda yashay boshlashibdi. Yangi kelganlarga
bu yerlik qushlar izzat-ikrom bilan mezbonlik
hurmatini bajo keltirdilar. In qurishga qulay joylar
ko'rsatdilar. Kakkular qushlarning tinch, osuda
yashashlarini, bir-biriga do'stona munosabatlarini
ko'rib ular bilan qolganlaridan behad mamnun

bo'lishdi.

Kakkularda yomon bir odat bor edi. Bolalarini
voyaga yetkazishni mushkul ish deb bilgani uchun
tuxumlarini o'zgalarning iniga tashlab qochishardi.
Bu yerda ham o'sha odatni tashlamadilar. Vaqt
o'tishi bilan, bu yomon odatga amal qiladigan
qushlar paydo bo'ldi. Buni sezgan Burgut
tashvishga tushdi. Ularga dakki berib aql
o'rgatishdan foyda yo'q. Shundan so'ng u
Kakkularni bir joyga yig'ib, shunday dedi:

– Sizlar ancha ko'payshib qoldingiz.
O'z'laringizga doimiy makon topib yashashingiz
mumkin.

Kakkular Burgutning qaroriga qarshi biror
sabab topa olmay, tezda yangi joy axtarib safarga
otlanishdi. Ammo shu bilan Burgutning
tashvishlantirgan muammo hal bo'lmadi. Kakkular
ketgani bilan ular yuqtirgan illat yashab qoldi.
Burgut yana o'yga cho'mdi. Nihoyat, uning yodiga
Oqqushlar tushdi. Oqqushlarning juftiga, oilasiga
sadoqati haqida, hatto afsonalar to'qilganidan
xabardor edi. Burgut shu kuniyoq ishonchli
do'stlarini huzuriga chorlab:

– Qayerda Oqqushlar bo'lsa, boshlab keling.
Ularga tinch, to'q va farovon yashashlari uchun
bu yerda hamma narsa muhayyo ekanini
tushuntiring, – deb tayinladi.

...Kakkular kabi Oqqushlarni ham izzat-ikrom
bilan kutib oldilar. Ularga va'da qilingan barcha
narsalar muhayyo qilindi.

Vaqt o'tishi bilan qushlar Oqqushlarga
ergashib, Kakkularidan o'rgangan yomon
odatlarini tark etdilar. Ibratning kuchi nimalarga
qodir ekanini yana bir bor o'z isbotini topdi.




CHEMPIONLARNI SHARAFLAYMIZ

Shaxmat bo'yicha O'zbekiston chempionatining oliy liga bahslari o'z yakuniga yetdi. Poytaxtimizda bo'lib o'tgan mazkur musobaqada eng sara 21 nafar shaxmatchi o'zaro bahslashdi.

Yosh shaxmatchimiz Nodirbek Yoqubboyev erkaklar o'rtasidagi bahslarda to'qqiz partiyaning beshtasida raqiblaridan ustun keldi. Mag'lublar orasida xalqaro grossmeyster Aleksey Barsov ham bor.

Shuningdek, Javohir Sindorov, Akmal Fayzullayev va xalqaro grossmeyster Marat Jumayev bilan durang o'ynadi va 6,5 ochko bilan oltin medalni qo'lga kiritdi.



Alisher Begmurodov garchi Nodirbek bilan bir xil ochko jamg'argan bo'lsa-da, qo'shimcha ko'rsatkichlarga ko'ra kumush medalga loyiq topildi. Marat Jumayev esa 5,5 ochko bilan bronza medalga sazovor bo'ldi.

FIDE ustasi Gulruhbegim Tohirjonova 7 nafar raqibidan ustun kelib, ikki shaxmatchi bilan durang natijani ko'rsatdi. U musobaqa yakunida 8 ochko bilan 1-, 7 ochko jamg'argan Irina Gevorgyan 2-o'rinni egalladi. Sarvinoz Qurbonboyeva esa 3-o'rinni zabt etdi.

Muhammadsodiq ALIMOV

ALPOMISHLAR KAMOL TOPADI BUNDA...

Yurtimizda sportga berilayotgan e'tibor Buxoro viloyati yoshlarini ham yangi-yangi marralar sari chorlamogda.

Buxoro tumanidagi maxsus sport maktab-internatining futbol bo'limida bu borada bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Buning natijasida, 2015-yili yosh futbolchilar jamoa hisobida quyidagi yutuqlarni qo'lga kiritishdi.

1999–2000-yilda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida «Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi» sovrini uchun o'tkazilgan viloyat birinchiligida, 2001–2002-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida «Umid nihollari» viloyat bosqichi musobaqasida 2-o'rinlarni qo'lga kiritishdi. 2000–2001-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida Respublika turnirida 3-o'rinni egallashga muvaffaq bo'lishdi.

2003–2004-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida «Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi» sovrini uchun o'tkazilgan viloyat birinchiligida 3-o'rinni egalladi.



Sportchilarning bunday ulkan yutuqlarga erishishida murabbiylarning mehnati beqiyos. Ilhom Rahmatov, Jumamurod Hasanov, Luqmon Nasriyev singari tajribali sport ustalari shogirdlariga futbolning sir-asrorlarini puxta o'rgatishmoqda.

Nargiza AKRAMOVA,
Zarnigor MUSAYEVA

Laylo Bayonova tengdoshlari ichida qobiliyati, tirishqoqligi, mehnatsevarligi bilan ajralib turadi. U erishayotgan yutuqlarda o'z isbotini topmoqda.

GIMNASTIKA GO'ZALI

Toshkent shahar Sirg'ali tumanidagi 301-umumta'lim maktabining 4-sinfida o'qiydigan Laylo sport gimnastikasi bo'yicha respublika musobaqalarida oliy o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Jumladan, «Olimpiya umidlari»da 3-, «Shahar umidlari» sport o'yinlarida esa 2-o'rinlarga sazovor bo'ldi.

– Meni sportga kirib kelishimga ota-onam sababchi bo'lganlar. Ular bu sport turi qiz bola uchun ahamiyati katta ekanligiga amin bo'lib, sport gimnastikasini tanlashgan. Yodimda, onam bilan to'garakka ilk kelgan kezarimda menda qo'rquv paydo bo'lgandi. U yerdagi qizlarni yoq uchida turadigan murakkab mashqlarni ko'rib men



ham bajara olarmikanman, deb o'ylardim. Birinchi ustozim Irina Dmitrovna bu hayajonni yengishimga yordam berdi. Ana shu ishonch ortidan sport gimnastikasiga bo'lgan mehrim ortdi.

Charos XUSHVAQTOVA

EPCHILLAR BELLASHUVI

Yaqinda Respublika olimpiya zaxiralari kollejida 2003–2004-yillarda tug'ilgan o'g'il-qizlar o'rtasida yengil atletika bo'yicha O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi.

Chempionatning 600 va 1000 metr masofaga yugurish bahslarida surxondaryolik Javohir Nazirov marraga birinchi bo'lib yetib kelib, ikkita oltin medalni qo'lga kiritdi. 60 va 300 metrga yugurishda toshkentlik Oskar Ko'chmurodovga teng keladigani topilmadi.

Qizlar o'rtasida farg'onalik Dilbarxon Abdulhamidova, Toshkent viloyatidan Alina Oydinova, poytaxtlik Adelina Borsheva shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi.

400 metrga estafeta bahslarida o'g'il bolalar va qizlar o'rtasida Toshkent shahri jamoasi birinchi bo'ldi.

60 metr masofaga to'stiqlar osha yugurish hamda uch kurash bahslarida Toshkent viloyatidan Edgar Burhonov va farg'onalik Ismigul Akbarova g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Uzunlik va balandlikka sakrashda sirdaryolik Ulug'bek Toshbekov, toshkentlik atletlar Nikita Pak, Farida Yashinova, Alina Tebenkova g'alaba qozongan bo'lsa, yadro uloqtirishda farg'onalik sportchilar Ayubxon Fayozov va Mahliyo Tojaliyevaning mahorati yuqori baholandi.

Sh. KAZAKBAYEV

YOSH TENNISCHILARIMIZ G'ALABASI

O'zbekiston tennis federatsiyasi va Xalqaro tennis federatsiyasi (ITF) tomonidan o'smirlar o'rtasida xalqaro turnir tashkillashtirildi.



Toshkent shahridagi Respublika olimpiya zaxiralari tennis maktabi kortlarida bo'lib o'tgan ushbu musobaqada o'ndan ziyod davlatdan kelgan tennischilar yakkaalik va juftlik bahslarida kuch sinashdi.

Umidli tennischimiz Jo'rabek Karimov yakkaalik bahslarida bosh sovrinni qo'lga kiritdi. Juftliklar o'rtasida ham yurtlarimiz Sharobiddin Abzalov va Humoyun Sultonov g'alaba qozondi. Ular birinchi davrada beloruslik Aleksandr Leonenka va Aleksandr Zgirovskiy, chorak finalda hindistonlik Adil Kalyanpur va fransiyalik Klement Tabur, yarim finalda Buyuk Britaniya vakillari Ben Dreyper va Jek Molloy juftligidan ustun keldi. Yakuniy bosqichda Buyuk Britaniya vakili Jeyms Devis va Metyu Sammers ustidan 7:6, 3:6, 10:5 hisobida g'alaba qozondi.

Nozima JAVHAROVA

AVJI BALAND NIHOLLAR

Hech e'tibor berganmisiz, o'quvchilari bilan tadbir o'tkazayotgan ustozning hayajoni shogirdlarinikidan kam bo'lmaydi. Poytaxtimizning Sirg'ali tumanidagi 300-IDUMda bo'lib o'tgan «Barkamol avlod yurt kelajagi» nomli tadbirda ishtirok etganimizda, bunga yana bir bor amin bo'ldik.

onaxon dan ustozning kim ekanligini so'radim. Avvaliga u kishi menga hayron bo'lgandek qaradi. Keyin esa mehmon ekanligimni sezdi chog'i, qo'shib qo'ydi:

– Nodiraxon-ku, bugungi tadbirning tashkilotchisi. Mening nabiram ham shu sinfda o'qiydi. Boyagi bolalar 4-sinfda o'qishadi. «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichiga chiqishgan ekan. Katta sinov oldidan maslahat olib ketishdi.



Tadbir o'tkazilishi belgilangan 1-«G» sinf xonasi bayramona bezatilgan. Ota-onalar, hatto buvionlar ham bolajonlarning bayram dasturlarini tomosha qilishga kelishgan. Men ham ular qatoriga qo'shildim. Shu payt yo'lakda turgan ikki o'quvchi diqqatimni tortdi. Ular nazarimda, ustozlar orasidan kimnidir izlayotgandek edilar. Adashmagan ekanman. O'quvchilar bilan so'nggi tayyorgarlik ishlarini olib borayotgan ustozlardan biri ularning oldiga kelib, har ikkalasining yelkasidan ohista quchdi. So'ng:

– Ha, sinovga ketyapsizlarmi? Omadlaringni bersin, hayajonlanmanglar, yaxshi natija ko'rsatishingizga ishonaman, – deydi.

Men bu holatdan ta'sirlanib ketdim. Sal narida bu voqeani zavq bilan kuzatib turgan

Ko'nglimda allaqanday iliqlik bilan ko'pchilikka ergashib, sinfga kirdim. Jajji o'quvchilar intiqib kutganimiz bahoroyini chiroyli tarzda tarannum etdilar. Ilm-fan, sportning ahamiyati, ogohlik davr talabi ekanligi kabi g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan sahna ko'rinishlarini namoyish etganlarida, tomoshabinlar ko'ziga yosh qalqiganini kuzatish nihoyatda ta'sirli edi. Bugungi osuda kunlarimizga shukronalik barq urib turgan tadbir barchani birdek to'liqlantirib yubordi.

Nodira Jamoliddinovaning 38 nafar shogirdlari zukkolikda, o'ziga bo'lgan ishonchda bir-biridan qolishmasdi.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha bu maskan poytaxtimizda mahorat maktabi sifatida e'tirof etilishining sababini anglaganday bo'ldim.

Yusuf ABDULLAYEV

TERMIZDAN TABRIK KELD!

Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 11-umumta'lim maktabining 6-«V» sinf o'quvchilari hamda Sarvaroy NE'MATULLAYEVA, 3-umumta'lim maktabining 4-«G» sinf o'quvchisi

Sevimli gazetamning aziz ijodkorlari. Fasllar kelinchagi bo'lmish bahor ayyomi barchangizga mubarak bo'lsin!



DUNYODAGI ENG BAXTLI VA OMADLI INSONLAR HAM SIZLARGA HAVAS QILSIN!

Bu qiziq!

1. Yumronqoziq bir kechada 76 metrgacha uzunlikda yerosti yo'li qazishi mumkin.
2. Ko'rshapalak — ucha oladigan yagona sut emizuvchi jonzorot hisoblanadi.
3. Qutb ayiqlari soatiga 40 km tezlikda yugura oladi.
4. Timsohlar suv ostiga chuqurroq sho'ng'ish uchun og'ir toshlarni yutib yuboradi.
5. Shimpanzalar o'zini ko'zguda taniy oladigan maymun zotidir.

Mehri SHAYMANOVA, Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchisi

TO'PISHMOQLAR

Parcha xamirga biroz Yashirdik go'sht-u piyoz. Issiq suvga tushirdik, Olov yoqib pishirdik. Juda qiziq barchasi — Toyniki quloqchasi. Ishtahang ochar, qara, Sergo'sht bo'lsa...



O'zi sariq-ku, olma emas u, Hid sochar har yon, Mazasi nordon. Kesib yeyilar, Ezib yeyilar. Uni topish jo'n, Oltinday...



Ko'klam gullaydi chaman, Rangi-chi turli-tuman. Pishsa mazadir o'zi, Yuzingga o'xshar yuzi. Yulduz chiqadi kessang, Qarsillar uni yesang. Topishdan chetda qolma, Afyob meva...



Manzura UBAYDULLAYEVA to'pladi

Bahrom AKBAROV

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

HAYVONOT OLAMI ALIFBOSI

«R»ga topolmay misol, Hayron qoldim, bo'ldim lol.

R



«S»da ochofat Sichqon, Qo'yingiz tezda qopqon.



«U»da Ukki xola bor, «Uk-uk» deyishga tayyor.

Ng

(Tamom)

«Ng»ga Siz so'z toping, Kitobingizni yoping.



«Ch»da ketar Chumoli, Xuddi qo'shin misoli.



«T»da Tovus tovlanar, turli rangda turlanar.



28-mart 2016

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Dilshod KENJAYEV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Jamoliddin ABDULLAYEV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchidizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 51800
Buyurtma – S 5511

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.